



LIRIKADA G‘AZAL JANRINING O‘RNI

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Jo‘rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining lirik turiga oid g‘azal janrining o‘rni haqida ma’lumot berilgan. Bunda g‘azal va uning tuzilishiga ko‘ra turi va tahlili aytib o‘tilgan.

Kalit so‘z : lirika, mumtoz, yakpora, musalsal, voqeaband, g‘azal

Mumtoz she’riyatda har bir ijodkorning maqomi , o‘rni, dovrug‘i uning g‘azalchilikdagi mahorat darajasi bilan belgilangan. **G‘azal arabcha** so‘z bo‘lib, uning ma’nosi “oshiqona so‘z” yoki ayollarni madh etish demakdir. Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr “G‘azal” atamasi dastlab VI–VII asrlarda arab she’riyatida paydo bo‘lgan. So‘ng O‘rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o‘tib, X asrda forsiy adabiyotga, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan. Hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan. Lekin 21, hatto 27 baytli g‘azal namunasi ham uchraydi.

Ilk bayti matla’ yoki mabda’ (ar. “boshlanma, chiqish”) deb atalib, undagi misralar o‘zaro qofilanadi (a-a), qolgan baytlardagi juft misralar matla’ga qofiyadosh bo‘ladi. Ba’zan g‘azalning ikkinchi bayti ham o‘zaro qofiyalanishi (a-a, a-a) mumkin, bunga g‘azalning pardozi sifatida husni matla’ yoki zebi matla’ deyiladi. Agar g‘azalning barcha baytlari o‘zaro qofiyalangan bo‘lsa (a-a, a-a, a-a, a-



a), u g‘azali zeb qofiya deb, g‘azalda ichki qofiyalar bo‘lsa, g‘azali musajja’ deb ataladi. G‘azalning oxirgi bayti maqta’ (ar. “tugallanma, kesilish “) deb atalib, unda shoirning adabiy taxallusi keltiriladi.

Matla’ Ul sanamkim , suv yaqosinda paritek o‘lturur,-a

G‘oyati nozuklikdin suv bila yutsa bo‘lur.-a

Maqta’ Qoshlaring yosin Atoyi ko‘rgali husn ichra toq-f

Subhidim mehroblarda surayi yosin o‘qur-a

Fors so‘z san’atida g‘azal dastlab, Rudakiy ijodida uchrasa-da, Sa’diy ijodida u to‘la shakllanib, she’riyatning asosiy janrlaridan biriga aylandi, keyin Hofiz Sheroziy uni yuksak darajaga ko‘tardi: u o‘zigacha tasavvufiy va dunyoviy yo‘nalishda rivojlanib kelgan g‘azalchilikni o‘zaro omuxta qildi. Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Isfahoniy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Rudakiy, Fuzuliy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi shoirlar g‘azal taraqqiyotida katta rol o‘ynaganlar.

O‘zbek adabiyotida g‘azalning ilk namunalari Rabg‘uziyning „Qisasi Rabg‘uziy“, Xorazmiyning „Muhabbatnoma“sida uchraydi, keyinchalik quyidagilar va boshqalar ijodida rivojlantirildi:

Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ubaydiy, Mashrab, Mujrim Obid, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Oga hiy, Muqimiy,

Furqat, Avaz O‘tar G‘azal dastlab ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib bordi hamda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-



axloqiy, mav'iza (pand-nasihat) va hajviy g'azallar yuzaga keldi. G'azal tuzilishiga ko'ra 4 mustaqil turga ajraladi:

1. Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal -- har bir baytdagi alohida-alohida mazmun yaxlit holda bunday g'azalning g'oyaviy mundarijasini tashkil etadi. Bunday g'azallar ko'p mavzuli bo'ladi. Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallarga bir paytlar "parokanda" so'zi adabiy atama sifatida qo'llangan. Bu so'zning lug'aviy mazmuniga oid "to'zg'itilgan" "tartibsiz" ma'nolari mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal xususiyatlariga begonadir. Navoiy oldingi g'azalnavislar uslubidagi ba'zi xususiyatlarni tanqid qiladi. G'azallarning kompozitsiya jihatdan **parokanda ("bir bayt mazmuni visol bahorida", "yana biri firoq xazonida")** shaklda yaratilishi Navoiyni qanoatlantirmaydi. U yakpora g'azal shaklini ma'qul ko'rgan.

2. Musalsal g'azal – tarkibida lirik voqea, manzara, fikr va kechinma satrlar silsilasida darajama-daraja (tadrijiy) rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan g'azal. Bu g'azallarning eng oliy navidir. **M: Navoiy "Ishq o'ti -azal qismati" ("Jong'a chun dermen..."), "Yordin ayru ko'ngil..." va boshq.**

3. Yakpora g'azal--har bir baytining mazmuni o'zidan oldingi va keying baytlarga izchil bog'langan g'azal. Yakpora g'azalning mazmuni matla'da ko'tarilgan bir mavzuni izchil yoritish jarayonida vujudga keladi. **M: A.Navoiy "Qaro ko'zum", "Kecha kelgumdir debon"**

4. Voqeaband g'azal – voqelikning bir bo'lagi iodalangan, hamma baytlari bir mavzuni yoritishga, bir g'oyaviy mazmunni ilgari surishga qaratilgan g'azal. Sujetli g'azalga nisbatan "voqeaband" atamasi bilan birga "lirik hikoya" atamasi ham qo'llaniladi. Voqeaband g'azallar ikki xil: biror voqea munosabati bilan yozilgan yoki aniq tarixiy voqeaga asoslanmay, oddiy lirik sujet zaminiga qurilgan bo'lishi mumkin. **M: A. Navoy "Orazin yopqach..." va b**



Gʻazallar gʻoyasi va mavzusiga koʻra orifona, oshiqona, rindona (Mumtoz sheʼriyatda may taʼrifida kelgan gʻazallar), hajviy, yumoristik, axloqiy, taʼlimiy, publitsistik, ijtimoiy-maʼriiy va tabiat tasviriga bagʻishlangan boʻlishi mumkin. Gʻazallarda koʻpincha 2 ta markaz boʻlgan: biri qahramonning ahvoli, ikkinchisi – maʼshuqa taʼrifi. Barcha obraz va ifodalar shu ikki markazga kelib tutashgan. Ishqiy gʻazallarda **maʼshuqa, oshiq va raqib** obrazlari asosiy obraz hisoblandi. **Maʼshuqa**—ishqqa sabab boʻlgan, oshiq koʻnglini rom etgan goʻzal yor, uning goʻzalligi chiroyli tashbehlar bilan iodalanadi. Sharq sheʼriyatida noziklik goʻzallikning muhim belgisi sanalgan. **Oshiq** ishqqa muhtalo boʻlgan, oʻzini unutgan kishi. U raqibga oʻzining nafratini ochiq bayon etadi, oshiqlik timsollari boʻlmish bulbul Majnun, Farhod, Vomiq obrazlariga oʻxshatiladi. **Raqib** – maʼshuqaning vasliga daʼvogar boʻlgan boshqa bir oshiq .

Bu obraz gʻayr agʻyor, oʻzga nomlari bilan ham yuritiladi. Tasavvuf adabiyotida yuqoridagi obrazlar yangicha maʼno kasb etadi: **maʼshuqa (yor)**—ALLOH yoki PAYGʻAMBAR yoxud pir (ustoz) , doʻst maʼnosida, **oshiq**—ALLOHga ruhan yaqinlashishga intilayotgan inson , soʻfiy banda ; **raqib** esa nafs, dunyo maʼnolarida keladi.

Fors-tojik gʻazalchiligida aruz vaznining hazaj bahri, turkiy xalqlar gʻazalchiligida ramal bahri koʻp qoʻllangan. Masalan, Navoiyning 2600 gʻazalidan 1600 ga yaqini, Atoiyning 260 gʻazalidan 109 tasi, Husayn Boyqaroning esa barcha gʻazallari ramalda yozilgan. Aruzda 21 ta bahr boʻlib, oʻzbek gʻazaliyotida faqat Navoiy ularning koʻpchiligini qoʻllagan. Gʻazalda ishqiy mavzu yetakchilik qilishiga qaramay, gʻazalnavislar bu janrning imkoniyatlaridan inson maʼnaviy dunyosining, shuningdek, tabiat va jamiyatning barcha murakkab tomonlarini ifodalash uchun foydalanganlar. XV asrdan gʻazal oʻzbek sheʼriyatida ham asosiy va yetakchi janrga aylandi. Navoiyga oʻzbek tilida 2600 dan



ortiq gʻazal yaratib, bu janrning gʻoyaviy-tematik doirasini kengaytirdi, uni hayotga yaqinlashtirdi, realistik tamoyillarni kuchaytirdi.

Keyinchalik oʻzbek sheʼriyatida Hamza, Choʻlpon, Xurshid, Gʻafur Gʻulom,

Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy, Chustiy, Vosit Saʼdulla, Jumaniyoz Jabborov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol va boshqalar gʻazalni yangicha sharoitda davom ettirdilar va uning mavzu doirasini boyitdilar, shu bilan birga, anʼanaviy ishq-u oshiqlik mavzusida ham koʻplab badiiy barkamol gʻazallar yaratdilar. (yana qarang: Sheʼr tuzilishi, Sheʼrshunoslik); 2) musulmon Sharq madaniyatidan keng oʻrin olgan mumtoz musiqa janri. Dastlab (masalan, Abdulqodir Marogiy koʻrsatishicha, XIV–XV asrlarda) „navbat“ deb ataluvchi murakkab shakldagi janrning ikkinchi qismi sifatida, asosan, fors tilidagi sheʼrlar bilan ijro etilgan. Soʻngra Navoiy, Kavkabi, Chustiy va boshqalarning asarlarida gʻazal Oʻrta Sharq xalqlarida eng sevimli musiqa janrlaridan biri sifatida taʼriflangan. Hozirda, asosan, lirik-falsafiy (jumladan, tasavvufiy) mazmundagi gʻazal namunalari, yakkaxon xonanda va cholgʻu ansambli tomonidan ijro etiladigan, yirik shakldagi musiqa janri sifatida Pokiston, Shimoliy Hindiston, Bangladesh, Eron, Afgʻoniston va ayrim arab mamlakatlarida tarqalgan. Kuylar diapazoni kengligi, ohang va ritmik rivojining murakkabligi bilan ajralib turadi. Gʻazal raga singari kichik cholgʻu vokal muqaddimasi bilan boshlanadi, unda xonanda yuqori pardalarda ijro etiladigan aylanma tuzilmalar, glissando (sirgʻanuvchi ohanglar) va boshqa uslublardan foydalanib, asarning asosiy tovush qatori, shuningdek, badiiy oʻziga xosligini namoyish etadi.

Gʻazal urdu, hind, fors, panjob, gujarot va boshqa tillarda kuylanib, unda Xusrav Dehlaviy, Kabir, Surdas, Mirzo Gʻolib, Muhammad Iqbol, Fayz Ahmad Fayz kabi shoirlarning sheʼrlari asosiy oʻrin tutadi. XX asrda gʻazalning



zamonaviy shakllari rivoj topib, ular konsert dasturlari (Mehdi Hasan, Roshan Ara begim, Bare G‘ulom Ali Xon, Ramzan Xon va boshqalar), kino musiqasi (Lata Mangeshkar, Muhammad Rafi va boshqalar)da keng ijro etilmoqda.

Sharq mumtoz adabiyotining g‘azal shakli Yevropa adabiyotida ham shunday shakllar paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Turkiy adabiyot durdonalari. “O‘zbekiston” Toshkent – 2022.
2. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi-T: 2006
3. Tadqiqotlar .uz
4. Tafakkur.net